

INGLIZ TILIDA KASBIY TERMINOLOGIYANI O‘QITISHDA LEKSIK KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Murtazaeva Aisafar Bazarkulovna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz filologiyasi Ingliz tili nazariy fanlar kafedrası

katta o‘qituvchisi

e-mail: aisafar81@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada menejment yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga ingliz tilidagi kasbiy terminlarni o‘rgatish jarayonida yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, terminologik lug‘atni samarali o‘zlashtirish uchun kommunikativ, kognitiv va kasbiy yondashuvlarga asoslangan metodlar taklif etiladi. Tadqiqot natijalari talabalarining kasbiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda integrativ yondashuv muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: terminologik lug‘at, ESP, menejment ta‘limi, kommunikativ kompetensiya, kognitiv yondashuv, kasbiy til, CLIL, integrativ ta‘lim, leksik kompetensiya, o‘qish ko‘nikmalari

ABSTRACT

This article analyzes the challenges faced by students majoring in management in the process of learning professional English terminology. In addition, it proposes methods based on communicative, cognitive, and professional approaches to ensure the effective acquisition of terminological vocabulary. The research findings indicate that an integrative approach plays a significant role in developing students' professional communicative competence.

Keywords: terminological vocabulary, ESP, management education, communicative competence, cognitive approach, professional language, CLIL, integrative learning, lexical competence, reading skills

KIRISH

Menejment ta‘lim yo‘nalishlarida ta‘lim olayotgan talabalar uchun ingliz tilini bilish har tomonlama rivojlangan va malakali mutaxassisni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Kasbga yo‘naltirilgan matnlar ustida ishlash jarayonida talabalar yangi ma‘lumotlarni oladilar va o‘zlarining lug‘at boyliklarini terminlar bilan sohaga oid muntazam ravishda to‘ldiradilar.

Menejment ta‘lim yo‘nalishlarida terminlarni o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalarining yetarli miqdorda emasligi, albatta, achinarli holatdir. Ushbu holat

har bir talaba uchun o'zining shaxsiy imkoniyatlaridan to'liq foydalanishi va ularni ochib berishi uchun haqiqiy ta'lim sharoitlarini yaratish zarurligidan dalolat beradi.

Kasbiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirish talabalar tomonidan zarur bo'lgan so'z boyligini to'ldirish va kengaytirish orqali yuzaga keladi. Bu esa bilim, ko'nikma va malakalarning yetishmasligini bartaraf etish uchun zarur sharoit va imkoniyatlarni izlashga undovchi psixologik stimullarni safarbar etadigan texnika va sa'y-harakatlar majmuasini o'z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Zamonaviy til o'qitish metodikasida ESP (English for Specific Purposes) yondashuvi muhim o'rin egallaydi. Ushbu yondashuv Tom Hutchinson va Alan Waters tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u tilni o'rganishni o'quvchilarning kasbiy ehtiyojlari bilan bevosita bog'laydi.

Kommunikativ yondashuvga ko'ra, Jack C. Richards til o'qitishda asosiy e'tibor muloqot kompetensiyasini shakllantirishga qaratilishi lozimligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, CLIL modeli Do Coyle tomonidan taklif etilgan bo'lib, u til va fan mazmunini integratsiyalash orqali o'qitishni nazarda tutadi.

Leksik kompetensiyani rivojlantirishda Paul Nation so'zlarni kontekst asosida o'rganish muhimligini asoslab bergan.

Biroq, mavjud tadqiqotlarda menejment yo'nalishidagi talabalar uchun terminologik lug'atni o'rgatish masalasi yetarlicha yoritilmagan bo'lib, ushbu tadqiqot aynan shu muammoni hal etishga qaratilgan.

MUHOKOMA VA NATIJALAR

Notilshunos fakultet o'zbek tili guruh talabalarini bunday strategiya va samarali usullarga maqsadli va tizimli yo'naltirish zarur. Menejment ta'lim yo'nalishidagi milliy guruh talabalariga ingliz tilini, xususan, maxsus kasbiy sohaga oid lug'atni o'rgatish dolzarb hisoblanadi, chunki atamalarni to'g'ri bilmasdan ushbu tilni professional darajada egallashni ta'minlash mumkin emas. Shu bilan birga, asosiy vazifa mutaxassisning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir.

Birinchidan, ta'lim standartlariga muvofiq, mutaxassis rus tilidan foydalangan holda kasbiy faoliyat olib borishi hamda ingliz tili muhitida professional aloqani amalga oshira olishi lozim. Faoliyatning professional yo'nalishi, birinchi navbatda, "ingliz tili xorijiy til sifatida" fanini asosiy fanlar bilan integratsiyalashni talab qiladi.

Ikkinchidan, ingliz tili o'qituvchisi oldiga kelajakdagi mutaxassisni fanlararo aloqalar asosida tilni o'z kasbiy bilimlarini muntazam ravishda boyitish vositasi sifatida, shuningdek, kasbiy mahoratini shakllantirish vositasi sifatida qo'llashni o'rgatish vazifasi qo'yiladi.

Uchinidan, bu jarayon kelajakdagi mutaxassisning zarur kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali o'qitish shakl va metodlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Menejment ta'lim yo'nalishidagi talabalar uchun ingliz tilini o'qitish, ayniqsa, kasbiy nutqni shakllantirish jarayoni, yangi sohaga oid terminlar asosida yondashuvni talab etadi. Ushbu yondashuv muayyan faoliyat sohasidagi so'nggi ilmiy yutuqlarga yo'naltirilgan bo'lishi, talabalar kasbiy qiziqishlariga bevosita ta'sir etuvchi ma'lumotlarni o'z vaqtida aks ettirishi hamda ularga kasbiy rivojlanish imkoniyatini yaratishi lozim. (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Terminologik lug'atni o'qitishdagi muammolar va yechimlar

Muammo	Sabab	Yechim
Terminlarni tushunmaslik	Kontekstsiz o'qitish	Kontekst asosida o'qitish
Lug'at boyligining kamligi	Amaliy mashqlar yetishmasligi	Mashqlar tizimini kuchaytirish
Motivatsiya pastligi	Qiziqarli material yo'qligi	Autentik materiallar qo'llash
Noto'g'ri tarjima	Bir usulga bog'lanish	Ko'p usulli tarjima

Kasbiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirish milliy guruh talabalarining zarur lug'at boyligini kengaytirish va to'ldirish orqali amalga oshiriladi. Bunda sohaga oid terminologiya bilan boyitilgan darslik matnlari ustida ishlash muhim ahamiyatga ega, chunki kommunikatsiya mazmuni, avvalo, atrof-muhitdagi obyekt va hodisalarni aks ettiruvchi konseptual maydonni o'z ichiga oladi. Lingvodidaktik maqsadlarga erishish uchun ingliz tili o'qituvchisi menejment yo'nalishiga oid o'qitiladigan materiallarning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur bilishi zarur. Bu holatda an'anaviy usul — ya'ni yangi atamalarni faqat tarjima qilish — yetarli emas.

Agar ingliz tilini o'rganayotgan milliy guruh talabarlari ekvivalent so'zlarning semantik farqlarini chuqur anglamasalar, u holda na amaliy, na semantik jihatdan to'liq natijaga erishiladi. Shu sababli o'qituvchining lingvistik bilimiga ega bo'lishi va bir nechta tarjima usullaridan foydalanishi muhimdir.

Lug'aviy birliklarni faqat kontekstdan tashqarida o'rganish samarali emas. Matnlarda uchraydigan terminlar, so'zlar va iboralar talabalar uchun tahlil va xulosa chiqarish faoliyatining obyektiga aylanishi lozim. Kasbiy terminologiyaning lingvistik xususiyatlari o'qitish texnologiyalarini rivojlantirishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Menejment yo'nalishiga oid terminlar, asosan, o'qitish darslarida maxsus matnlar asosida o'rgatiladi.

O'qituvchi o'qish ko'nikmasini shaxsning intellektual rivojlanish ko'rsatkichi sifatida baholashi uchun, u o'qishning psixologik, pedagogik va lingvistik asoslarini chuqur anglagan holda dars jarayonini tashkil etishi zarur.

Shuningdek, talabalar tomonidan individual ta'lim rejalarini samarali o'zlashtirish ham aynan o'qish ko'nikmasining rivojlanganligiga bog'liq. Maxsus adabiyotlarni o'qishga kirishgan talabalar nutq faoliyatining turli ko'rinishlari bo'yicha yetarli tayyorgarlikka ega bo'lishlari kerak.

Mutolaa talabalarga nafaqat ingliz va o'zbek tillarida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish, balki o'z mutaxassisligiga oid bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini ham beradi. Menejment ta'lim yo'nalishiga oid terminlarni o'zlashtirish jarayonini optimallashtirish maqsadida talabalar o'qishning to'rt asosiy turidan foydalanishlari mumkin:

1. ko'rib chiqish (skimming),
2. qidirish (scanning),
3. tanishish (introductory reading),
4. chuqur o'rganish (intensive reading).

Talabalar til materialining asosiy mazmunini to'g'ri anglashlari uchun ushbu o'qish turlari bilan yaxshi tanish bo'lishlari zarur. Shu bilan birga, ular o'qilgan matn mazmunini imkon qadar batafsil yetkazib bera olishlari, matndan formulalar va raqamli ma'lumotlarni ajratib olishlari, mavjud bilimlarini to'ldirish uchun matndan foydalanishlari hamda kelgusi amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan reja va sxemalarni matndan tanlab olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim.

Matn bilan ishlashda zarur o'qish ko'nikmalarini shakllantirish uchun maxsus mashqlar tizimidan foydalaniladi. Semantik ma'lumotni samarali qabul qilishni ta'minlovchi retseptiv ko'nikma va malakalarni shakllantirish quyidagi to'rt bosqich asosida amalga oshiriladi:

- 1) yangi leksik va grammatik materialni matn asosida taqdim etish va yo'naltirish;
- 2) leksik va grammatik birliklarni tanib olish hamda tushunish jarayonlarini avtomatlashtirishga qaratilgan maqsadli mashg'ulotlarni tashkil etish;
- 3) turli o'qish turlaridan kommunikativ o'qishga o'tish jarayonida ko'nikmalarni mustahkamlash va avtomatlashtirishni yakunlash;
- 4) matnning umumiy mazmuni, tafsilotlari, til tuzilishi hamda mantiqiy-semantik strukturasi asosida uni to'liq va aniq anglash kompetensiyasini shakllantirish. (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

Kommunikativ mashq turlari

Mashq turi	Maqsad
Leksik mashqlar	Lug‘at boyligini oshirish
Dialoglar	Muloqotni rivojlantirish
Rolli o‘yinlar	Amaliy ko‘nikma
Tahlil mashqlari	Tanqidiy fikrlash

Adabiyotda va amaliyotda o‘qishni o‘qitish tizimlarining ko‘pligi va xilma-xilligi kuzatiladi. Ularning aksariyati o‘quv birligi sifatida matnga asoslanib, tayyorgarlik, shartli-kommunikativ va to‘g‘ri-kommunikativ bosqichlarga ajratilgan holda tashkil etiladi. Shu bilan birga, ular mashqdan oldingi, matn bilan ishlash jarayoni va matndan keyingi faoliyatlarni o‘z ichiga olgan kichik tizimlardan iborat bo‘ladi. Har bir mashq turi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular retseptiv yoki reproduktiv, sodda yoki murakkab, og‘zaki yoki yozma, bir tilli yoki ikki tilli, “ovoz chiqarib o‘qish” yoki “ichda o‘qish” kabi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin.

O‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi mashqlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- asosiy g‘oyani ajratib ko‘rsatish qobiliyatini rivojlantiruvchi mashqlar;
- so‘z yasash va kontekst asosida taxmin qilish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi mashqlar;
- mantiqiy-tahliliy fikrlash kompetensiyasini rivojlantiruvchi mashqlar.

O‘qishni o‘qitish jarayonida nafaqat yangi ko‘nikmalarni shakllantirish, balki eski va samarasiz odatlardan voz kechish ham muhimdir. Bular jumlasiga so‘zma-so‘z tarjima qilish, sekin o‘qish, ortiqcha ovoz chiqarib o‘qish va og‘zaki nutqqa haddan tashqari tayanish kiradi.

Mutaxassislik tilini o‘qitishda lingvotexnik asoslarni yaratish uchun til materiallarini puxta va tizimli tanlash muhim ahamiyatga ega. Eng ko‘p qo‘llaniladigan leksik birliklar va tipik sintaktik konstruksiyalarni saralab, ularni ma‘lum tartibda joylashtirish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi hamda talabalar bilimlarini real vaziyatlarda qo‘llash imkonini yaratadi.

Menejment yo‘nalishida ingliz tilini o‘qitishda terminologik lug‘atni shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

- leksik birliklarni kiritish;
- tayyorlov (til) mashqlari;
- nutqiy mashqlar.

Kasbiy yo‘naltirilgan nutqni rivojlantirishda muhim omillardan biri talabalar tomonidan so‘zlarning mosligi, iboralar tuzilishi hamda terminlarning gap ichida to‘g‘ri qo‘llanilishini anglashdir. Tilni bilish faqat alohida so‘zlarni yod olish emas, balki barqaror so‘z birikmalari va ularning qo‘llanilishini o‘zlashtirishni ham nazarda tutadi. Talabalarning qabul qilish (receptive) ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimdir, chunki ular ilmiy nutqni shakllantirishdan oldin kerakli axborotni o‘qish va tinglash orqali o‘zlashtiradilar. Agar talabalar grammatik va leksik birliklarni to‘g‘ri aniqlay olsalar, so‘zlar o‘rtasidagi mantiqiy aloqalarni tushunsalar, unda ingliz tilidagi ilmiy nutqni anglash jarayoni yanada samarali kechadi.

XULOSA

Shunday qilib, menejment ta‘lim yo‘nalishlarida ingliz tilini o‘qitishda terminologik lug‘atni o‘rgatish jarayoni kompleks va integrativ yondashuvni talab qiladi. Kasbiy yo‘naltirilgan matnlar bilan ishlash, autentik materiallardan foydalanish hamda zamonaviy metodlarni qo‘llash talabalar kommunikativ kompetensiyasini samarali rivojlantiradi. Kasbiy matnlar ustida ishlash jarayonida talabalar yangi bilimlarni egallaydilar va o‘z terminologik lug‘atini muntazam ravishda boyitadilar. Bu esa ularga o‘z mutaxassisligi doirasida bilimlarni amaliyotda qo‘llash, og‘zaki va yozma nutqda erkin foydalanish imkonini beradi.

Shuningdek, ingliz tilini o‘rganish uchun ajratilgan vaqtning cheklanganligini hisobga olib, ta‘lim jarayoni so‘z, ibora va matn darajasida kompleks tashkil etilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hutchinson T., Waters A. (1987) English for Specific Purposes. Cambridge,
2. Coyle D. CLIL: (2010) Content and Language Integrated Learning. Cambridge,
3. Harmer J. (2007) How to Teach English. Longman,
4. Richards J. (2006) Communicative Language Teaching Today,
5. Nation I.S.P. (2001) Learning Vocabulary in Another Language,
6. Komilova, G.U., Murtazaeva A.B. (2024). *The development of students' oral speech using problem-based learning skills*. ResearchGate. <https://www.researchgate.net/publication/387935845> The development of students oral speech using problem-based learning skills.
7. Murtazaeva A.B. (2024) The Ways of Effective Teaching of English in Communicative Competence NamDU ilmiy axborotnomasi3-son, ISSN 2181-0427 1117-1121b. www.jurnal.namdu.uz
8. Murtazaeva A.B. (2024) Menejment terminologiyasini o‘zlashtirishda sohaga oid Leksikografik manbalarning ahamiyati filologiya masalalari Ilmiy-metodik jurnal (FM) Uzbekistan State World Languages University Philology Matters / ISSN: 1994

– 4233 2024 E-ISSN:2181–123 DOI: 10.36078/987654980/1 Vol. 48 No. 1
methodology183-201b. https://t.me/filologiya_masalalari_uz

9. Komilova G. U. Developing oral speaking skills through interdisciplinary
Integration in foreign language teaching “Improving the Methodology of TESOL:
Problems and Solutions” February 21,2026
<https://wosjournals.com/index.php/pteconf/article/view/14066>